

TARIXIY OYKONIMLAR VA ULARNING TASNIFI XUSUSIDA (FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)

Shukurov Rahmatillo,

Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18782131>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Farg‘ona viloyati misolida tarixiy oykonimlar va ularning tasnifi o‘rganilgan. Oykonimlar xalqning madaniyati, etnik tarkibi, tarixi va geografik muhiti haqida ma‘lumot beruvchi noyob manba sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, hududiy o‘zgarishlar, urbanizatsiya va mahalliy identichlik bilan bog‘liq jarayonlar tahlil qilingan. Maqolada tabiiy-geografik va iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar asosiy guruh sifatida ko‘rib chiqilgan va Farg‘ona viloyati hududidagi misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Oykonimlar, toponimiya, urbanonimlar, tabiiy-geografik oykonimlar, iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar, mahalliy identichlik.

Аннотация. В данном исследовании изучены исторические ойконимы и их классификация на примере Ферганской области. Ойконимы проанализированы как уникальный источник информации о культуре, этническом составе, истории и географической среде народа. Также проанализированы процессы изменения территории, урбанизации и локальной идентичности. Исследование рассматривает природно-географические и экономико-социальные ойконимы как основные группы и классифицирует их на примере Ферганской области.

Ключевые слова: Ойконимы, топонимия, урбанонимы, природно-географические ойконимы, экономико-социальные ойконимы, локальная идентичность.

Abstract. This study examines historical oikonyms and their classification using the example of the Fergana region. Oikonyms are analyzed as a unique source of information on the culture, ethnic composition, history, and geographic environment of the population. Territorial changes, urbanization, and local identity processes are also examined. The study considers natural-geographical and socio-economic oikonyms as the main groups and classifies them using examples from the Fergana region.

Keywords: Oikonyms, toponymy, urbanonyms, natural-geographical oikonyms, socio-economic oikonyms, local identity.

Kirish. Toponimikaning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan oykonimiya aholi maskanlari (shahar, qishloq, posyolka, ovul, mahalla) nomi va ularning kelib chiqishini o‘rganadi. Bu nomlar oykonimlar (yunoncha *oikos* - “uy, maskan” va *onyma* - “nom”) deb nomlanib, ular nafaqat geografik obyektning nomi, balki xalqning madaniyati, turmush tarzi, etnik tarkibi va tarixiy davriylik haqida aniq ma‘lumot beradi. Shu bois oykonimlar nafaqat tilshunoslikning, balki tarix, geografiya, etnografiya, antropologiya va sotsiologiyaning ham tadqiq obyektlaridan biridir.

Oykonimlar til tarkibidagi eng qadimiy qatlamlardan hisoblanib, xalqning etnik xotirasini, geografik muhitni, madaniy qadriyatlarni saqlab qoladi hamda kelgusi avlodga yetkazishga xizmat qiluvchi muhim manbaa hisoblanadi.

Oykonimlar hatto migratsiyalar va tarixiy voqealar haqida ma‘lumot beradi. Shuningdek, oykonimlar ma‘lum bir tilning taraqqiyoti, evolyutsiya jarayonida ro‘y bergan fonetik, leksik-semantik, derivatsion, morfologik hodisalar to‘g‘risida ham muhim

ma'lumotlarni tashiydi. Yana bir jihati, oykonimlarni tarixini o'rganish insonlarda "men kimman, men qayerlikman" degan vatanparvarlik hissini shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, oykonimlar faqat joy nomi emas, balki tarixiy meros, lingvistik manbaa, madaniy dunyoqarash va ma'naviy yaratuvchilik mahsulidir.

Adabiyotlar tahlili. Oykonimiya oykonimlarning o'rganuvchi toponimiyaning bir sohasi bo'lib, uning o'rganish obyekti yuzasidan turli qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar oykonim sifatida shahar, qishloq, shaharcha (posyolka), ovul, mahalla, guzar, ko'cha nomlarini e'tirof etadilar. Xususan, toponimist olim N. Oxunov o'z tadqiqotlarida qishloq, kent, ovul, mahalla, qo'rg'oncha, guzar, ko'cha nomlarini oykonimlar sifatida tadqiq etgan. U oykonimga ta'rif berar ekan, "...aholi punktlari va uning ichki bo'linishlari – qishloq, posyolka, ovul, mahalla, guzar, ko'cha nomlari oykonimlar deb yuritiladi", deya ta'kidlaydi [1,4-36].

Tadqiqotchi S. Karimov, S. Bo'rievlar esa qishloq, ovul, guzarlar, mahallalar, xullas, kichik turar joylarning nomlarini komonim, shahar nomlarini esa polisonimlar sifatida tadqiq etadilar.

Onomastik lug'atlarda hamda toponimikaga oid ayrim tadqiqotlarda esa oykonimlar shahar, shaharcha (posyolka), ovul, qishloq kabi aholi manzillarining atoqli otlari, deya ta'riflanadi[2,23].

Tadqiqotchi A.V. Superanskaya va V.A. Nikonovlar ko'cha nomlarini faqat til birligi emas, balki tarix, madaniyat va mafkurani aks ettiruvchi fenomen sifatida baholab, ularni o'rganuvchi sohani toponimiyaning muhim tarmog'i – xodonomiya, ko'cha nomlarini esa xodonom (yunoncha *hodos* (ὁδός) – "yo'l, ko'cha", *onyma* / *onoma* – "nom")lar deb ataydi. Xususan, V.A. Nikonov ko'cha nomlarini jamiyat tarixining "tildagi hujjati" sifatida talqin etadi [3,15].

Bizningcha, oykonimlarni belgilashda professor T. Nafasovning qarashlarini mezon sifatida belgilab olish maqsadga muvofiq: "... Qo'rg'onu qal'a, rabotu istehkomlar, qishloqlarning bunyod bo'lishiga asos bo'lganidek, qishloqlar shaharlarning paydo bo'lishiga zamin vazifasini o'tagan. Qishloqlar kattalashib, kengayib, bir-biriga qo'shib, yirik qo'rg'onlar qurilib, ravon va uzun ko'chalar bunyod etilib, guzarlar mahallalarga aylanib, jamisi bir majmuaga birikib shahar maqomini olgan [4,5]. Demak, oykonimlar tizimidagi kichik bir hudud, shu tizimdagi keyingi yirikroq hududning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Shunga ko'ra, shohko'cha, ko'cha, tor ko'cha, xiyobon, guzar nomlarini urbanonimlar nomi ostida o'rganish maqsadga muvofiq.

Urbanonim (lotincha *urbanus* – shaharga oid – *onoma* – atoqli ot) – shahar ichida joylashgan har qanday topografik obyektlar atoqli oti (godonim, xoronim, ekklezeonim) [5,198]. Godonimlar urbanonimlarning bir turi bo'lib, shahardagi yo'nalishli obyektlar (shohko'cha, ko'cha, torko'cha, bulvar, xiyobon, suv obyekti qirg'oqlari, sohillar va boshqalar) atoqli oti [6,87]. Masalan, Ahmad Farg'oniy shohko'chasi, Sayilogh xiyoboni (Farg'ona sh.) kabi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotchi Yu. Ne'matovanning qarashlari ilmiy terminlarning mazmun-mohiyatini to'la anglab yetish, oykonimlarning chegarasini belgilashda muhim ahamiyatga ega, deb o'ylaymiz. Tadqiqotchi o'zining dissertatsion ishida oykonimlar sirasiga quyidagi joy nomlari kiritadi:

1. Shahar nomlari (astionimlar yoki polisonimlar): Namangan, Chortoq, Pop, Chust, Kosonsoy (Nam. v.) kabi;

2. Shaharcha (posyolka) nomlari (komonimlar): Haqqulobod, O'nhayat, Chorkesar (Nam. v.) kabi;

3. Qishloq (ovul) nomlari (komonimlar): Dovduq, To'da, Sayram, Qayqi, G'ayrat (Nam. v.) kabi;

4. Mahalla va mahalla fuqarolar yig'inlari nomlari: Ishonch, Olvalizor, Axsikent, Haqiqat, Dambog', Bo'ston, Bahor, Nurobod, Umid, Chorsu (Nam. sh.) kabi [7,12].

Shunga ko'ra, biz ham dissertatsiya ishimizning mazkur qismida oykonimlar nomi ostida Farg'ona viloyatidagi shahar, tuman, shaharcha (posyolka), qishloq, mahalla fuqarolar yig'inlari nomlarini tadqiq etishni maqsad qilib oldik.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirishning barqaror mezonlarini belgilashga qaratilgan 294-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda barcha mahallalarni xatlovdan o'tkazish, ularning aniq chegaralarini belgilash, eng muhimi, har bir mahallaning chegarasi bir aholi punkti (shahar, shaharcha, qishloq va ovul) doirasida bo'lishining qadimiy nomini saqlab qolish vazifasi belgilandi. Agar Farg'ona viloyatida 2024 yilga qadar mahalla fuqarolar yig'inlari soni 1062 tani tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida viloyatdagi mahalla fuqarolar yig'inlari soni hozirda 1017 tani tashkil etmoqda. Mazkur 1017 ta mahalla fuqarolar yig'inlari 4 ta shahar (Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Quvasoy) va 15 ta tuman (Bag'dod, Beshariq, Buvayda, Dang'ara, Yozyovon, Oltiariq, Rishton, So'x, Quva, Qo'shtepa, O'zbekiston, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, Toshloq) hududida joylashgan.

Metodologiya. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, viloyatning Bag'dod (Qaroqchitol, Qirqvolida, Cheksaroy, Chekhitoy, Maylaboy, Qahat, Xitoy, Irg'oli, Qo'g'oli, Olchin), Buvayda (Jalaer, Ing'irchoq, Qo'ng'iroq, Bachqir, Pishag'ar, Urganji), Dang'ara (Kapasaroy, Mang'it, Urganji, Taypoq, Uymovut, G'umoyli, Naymancha, Qizilmusht), O'zbekiston (Dasht Hasan, Dashtcho'lpon, O'qchi, Rajabgardi, Zinasha), Furqat (Jalaer, Ko'kdoppi, Ingichka, Chirkay, To'rg'ay, Kaldushon, Chekchuvaldoq) tumanlarida mahalla fuqarolar yig'inini nomlashda ular tegishli bo'lgan hududning tarixiy nomini saqlab qolishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, Oltiariq (Qahramon, Navqiron, Ustoz, Shodiyona, Yangiturmush, Zilol, Shalola, Bunyodkor, Maorif, Farovon), Yozyovon (Mustahkam do'stlik, Istiqlol, Taraqqiyot, Do'stlik, Yoshlik, Tinchlik, Porloq), Rishton (T. Ahmedov, M. Topvoldiev, Yangi yo'l, Yangi avlod, Sohibkor, Bo'ston, Yoshlik,

Mevazor) kabi tumanlarda yangi davr ruhini aks ettiruvchi, zamonaviy nomlarni olib kirish yetakchilik qilgan. Hududlarda oykonimlar (shahar, shaharcha, qishloq, ovul, mahalla fuqarolar yig'ini) soni, chegarasi, nomlanishining o'zgarib borishi tabiiy jarayon bo'lib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, o'sha joyga mansub xalqning madaniyati, kasb-kori, dunyoqarashidagi yangilanishlar bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda joylarning rasmiy manzilini belgilashda, faqatgina shahar (tuman) va mahalla fuqarolar yig'ini nomininggina berilishi, shaharcha, qishloq, ovul nomlarining qayd etilmayotganligi, kelgusida, ayniqsa, kichik qishloq yoki ovul nomlarining unutilib ketishiga olib kelishi mumkin, degan xavotirni yuzaga keltiradi. Vaholanki, oykonimlarning o'ziga jihatlaridan biri mahalliy identchilikdir. Identchilik – "biz" degan hissiyot, tug'ilib o'sgan va yashash joyi bilan faxrlanish, hudud tarixi haqida bilish, uni saqlash va tashqi ta'sirga nisbatan befarq bo'lmaslik hissidir. Tarixiy shaxslar va mahalliy qahramonlar nomi, voqealar, hududning qadimiy kasb va tabiiy xususiyatlari ularning nomi bilan atalgan joy nomlari orqali saqlanadi, hududning o'ziga xosligi mustahkamlanadi. Qisqa qilib aytganda, mahalliy identchilik – joy + xotira + madaniyat + nom birligida shakllanadigan o'z-o'zini anglash shaklidir.

Oykonimlarni o'rganish va ularning tadqiq qilish qanchalik murakkab bo'lsa, ularni tasniflash masalasi ham alohida e'tibor talab etadi. Shunga ko'ra, tilshunos olim A.V. Superanskaya: «Geografik nomlarni tasnifsiz tahlil qilish va sharhlash qiyin. Toponimist o'z tadqiqotida ma'lum bir tasnifdan foydalangan holdagina ilmiy xulosalar chiqarishi mumkin», – deb ta'kidlagan edi [8,55].

Muhokama. Ma'lumki, oykonimlar ko'plab toponimshunos olimlar tomonidan an'anaviy ravishda ikki yirik guruhga ajratiladi:

1. Tabiiy-geografik oykonimlar.
2. Iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar.

Tabiiy-geografik oykonimlar tabiiy sharoit va geografik muhit bilan bog'liq bo'lib, Farg'ona viloyatidagi mavjud oykonimlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

gidronim asosli oykonimlar (ariq, soy, daryo, ko'l atamalariga asoslangan). Oltiariq (Oltiariq t.), Uchariq, Zarariq (Rishton t.), Damariq (Quva t.), Ko'lboyi (Oltiariq t.), Soyboyi (Yozyovon t.), Soykeldi, Soyguzar (Quva t.), Oydinbuloq (Bag'dod t.), Kandabuloq (Bag'dod t.), Boltakul (Qo'shtepa t.);

oronim asosli oykonimlar (tog', tepalik, balandlik). Oqtepa, Qumtepa (Qo'shtepa t.);

fitonim va faunonim asosli (o'simlik-hayvonot dunyosi). Qorajiyda (Qo'shtepa t.), Yakkatut (Toshloq, Beshariq t.), Sertut, Chinortagi (Oltiariq t.), Qaroqchitol (Bag'dod t.), Qatortol (Yozyovon t.), Sebzor (So'x t.), Qayrag'och (Rishton t.), Yulg'unzor, Qorayantoq (Uchko'prik t.), Chilon (Quva t.), Chorbog'to'rangi (Beshariq t.), Kaptarxona (Farg'ona t.), Bo'riqum (Dang'ara t.);

iqlim va tabiiy sharoitga oid oykonimlar. Qumqishloq (Beshariq t.), Dashtcho'lp'on (O'zbekiston t.), Bog'iston, Mevazor (Rishton t.), Gul (Uchko'prik t.), Gulbog' (Bag'dod t.), Gulshan, Qo'riq (Farg'ona t.), Chang (Uchko'prik t.);

hosil bo'lishi murakkab (ekzotoponimlar) oykonimlar. Bu turga kiritiladigan nomlar bitta omilga emas, bir nechta tabiiy faktorlar – geologiya, relyef, iqlim, gidrografiya, madaniyat va tarixning birlashgan qatoriga asoslanadi: Shohimardon – bu nom shu joyning geografik (tog', vodiy), iqlim (tog' turizmi), suv resurs (Shohimardonsoy daryosi), tarixi va madaniy-ruhi qadriyatlarining jamlanishidan hosil bo'lgan kompleks nom.

Ko'rinadiki, ekzotoponimlar, asosan, tabiiy va inson omillarining kombinatsiyasi natijasida paydo bo'ladi.

Iqtisodiy-ijtimoiy oykonimlar aholi faoliyati, etnik tarkib, kasb-kor va ijtimoiy munosabatlar asosida yuzaga kelgan bo'lib, ularni Farg'ona viloyatidagi oykonimlar asosida quyidagicha tasniflash mumkin:

etnonimlar asosidagi oykonimlar. Qipchoq, To'da (Rishton t.), Qahat, Xitoy (Bag'dod t.), Qo'ng'iro't (Buvayda t.), Do'rmon (Qo'shtepa t.), Katta minglar (Dang'ara t.);

antroponim asosli oykonimlar. Zebuniso, Huvaydo (Quvasoy sh.), Ashurqulmangan (Qo'qon sh.), Zafarobod (Bag'dod t.), Shop'olat, Rahmatillo (Dang'ara t.), Avazboy (Rishton t.);

kasb va hunar asosli oykonimlar. Miltiqsoz, Ipakchi, Pichoqchi, Yo'rmado'z (Marg'ilon sh.), Misgarlik, Degrezlik (Qo'qon sh.), Ko'mirchi, Uzumchi (Oltiariq t.), Nosgar, Chinnigaron (Rishton t.), Karnaychi, O'qchi (Qo'shtepa t.);

ma'muriy-siyosiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan oykonimlar. Leninobod – Beshariq, Frunze – Dang'ara, Oxunbobo'ev – Qo'shtepa, M.Hasanov – Aeroport (Farg'ona sh.);

ma'naviy yoki diniy ahamiyatga ega bo'lgan (sakral) oykonimlar: Xo'jamaqiz, Yormozor (Farg'ona sh.), Sofilar (Toshloq t.), Sayidobod (Bag'dod t.), Xo'jaqo'rg'on (Oltiariq t.), To'raobod (Rishton t.) Tolmozor (Quva t.), Eshonguzar (Marg'ilon sh.), Poshshopirim (Buvayda t.);

Sanoat va infratuzilma asosli oykonimlar. To'qimachilar (Farg'ona sh.), Konchilar (Farg'ona t.), Sanoatchilar (Quva t.);

turizm va madaniy meros asosli oykonimlar. O'rdatagi, Pursiddiq (Marg'ilon sh.);

migratsiya yoki aholi tarkibi asosli oykonimlar: Samarqand (Bag'dod t.), Eskiarab, Yangiarab (Oltiariq t.), Arabmozor (Toshloq t.), So'xobod (Rishton t.), Tojikqishloq (Quva t.), Tojik (Uchko'prik t.)

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Farg'ona viloyatida G'alaba (Dang'ara, Quva t.), Ittifoq kabi joy nomlari mavjud. Ushbu oykonimlar, katta ehtimol bilan aytish mumkinki, sobiq Sovet Ittifoqi davrida mafkuraviy ma'no bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Biroq ijobiy ma'naviy belgi sifatida qaralib, bugungi kunda ular joy nomi sifatida saqlab

qolingan. G'alaba oykonimiga butun insoniyatning fashizm ustidan g'alabasini, tarixiy voqelikni eslatib turuvchi nom sifatida qaralsa, ittifoq oykonimi hamjihatlik, birdamlik ma'nosida, ayniqsa, ikki yoki undan ko'p millat vakillari istiqomat qiladigan aholi punktlariga juda mos keladi.

Xulosa. Shu bilan birga, oykonimlarning kelib chiqishi va etimologiyasini o'rganishda ularning qaysi til qatlamiga mansubligi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Farg'ona viloyatidagi mavjud oykonimlarni qaysi til qatlamiga mansubligiga ko'ra, turkiy qatlam, fors-tojik qatlam, arabiy qatlamga mansub va aralash (gibrid) nomlarga ajratish mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Farg'ona viloyatidagi mavjud oykonimlarning katta qismini aralash nomlar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Суперанская А.В. *Общая теория имени собственного*. -Москва: Наука, 1973
2. Никонов В.А. *Введение в топонимику*. - Москва: Наука, 1965
3. Охунов Н. *О'zbekiston oykonimlari tadqiqi*. - Toshkent, 2005
4. Nafasov T. *O'zbek toponimiyasi asoslari*. - Toshkent: Fan, 1998
5. Ne'matova Y. *Namangan viloyati oykonimlari (nomzodlik dissertatsiyasi)*. - Toshkent, 2018
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-maydagi 294-sonli qarori

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934